XALQ DEPUTATLARI QOROVULBOZOR TUMANI KENGASHI QARORI

2022 - yil 28 - noyabr VI-72-218-2-38-K/22 Qorovulbozor tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuniga asosan tumandagi istirohat bog‘ini nomlash to‘g‘risida

Qorovulbozor tumanidagi istirohat bog‘ini nomlash to‘g‘risida Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2022-yil 27-apreldagi yig‘ilish bayoni, 2022-yil 27-apreldagi 01-14-610-sonli ekspert xulosasini ko‘rib chiqib hamda “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga asoslanib, xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2022-yil 27-apreldagi yig‘ilish bayoni hamda 2022-yil 27-apreldagi 01-14-610-sonli ekspert xulosasi ma’qullansin.

2. Qorovulbozor tumani “Cho‘lquvar” mahallasida joylashgan istirohat bog‘iga “Shodlik” nomi berilsin.

3. Tuman hokimligi obodonlashtirish boshqarmasi (J.Adilov), tuman madaniyat bo‘limi (B.Hakimov), tuman statistika bo‘limi (F.Jumayev), Kadastrlar palatasi Qorovulbozor tumani filiali (R.Boqiyev)ga tegishli davlat ro‘yxatidan o‘tkazish idoralari bilan birgalikda mazkur qarordan kelib chiqib hisobotlarga belgilangan tartibda o‘zgartirishlar kiritish topshirilsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman

Kengashining Qonuniylikni ta’minlash va korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (B.Soliyev) va tuman hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi (O.Xolova) zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi **A.Ostonov**